



## BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISH

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talbasi*

*Abdumurotova Sarvinoz Hamza qizi*

*E-mail:[abdumurotovasarvinoz07@gmail.com](mailto:abdumurotovasarvinoz07@gmail.com)*

*Boshlang'ich ta'lif nazariyasi kafedrasi*

*Assistent o'qituvchisi*

*Umarova Dilafruz Anvarovna*

*E.mail:[umarovadilaftuz@gmail.com](mailto:umarovadilaftuz@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini integratsiyalashgan ta'lidiagi bilim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bola shaxsini har tomonlama madaniy rivojlantirish. insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilishga asoslanadi. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish uchun qanday usullardan foydalanish, o'zaro bog'lashda har xil metod, interfaol o'yinlarni qo'llash borasida gap ketgan. Qolaversa, fanlarni bog'lash orqali o'quvchilarni kreativ fikrlashga, tafakkurini kengaytirishga yordam berishi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, dastur, bilim, ko'nikma, malaka, o'quvchi, dars, ta'lif, fan, usul, metod.

**Abstract.** This article helps to increase the effectiveness of integrated education of primary school students. The comprehensive cultural development of a child's personality is based on knowledge of all the cultural wealth created by mankind. It discusses what methods to use to increase the effectiveness of integrated lessons, various methods of interconnection, and interactive games. In addition, it is described how connecting subjects helps students think creatively and expand their thinking.



**Keywords:** integration, program, knowledge, skills, competence, student, lesson, education, science, method, method

**Абстрактный.** Данная статья способствует повышению эффективности интегрированного обучения учащихся начальной школы. Всестороннее культурное развитие личности ребенка основывается на познании всех культурных ценностей, созданных человечеством. В статье рассматриваются методы повышения эффективности интегрированных уроков, различные способы взаимосвязи и интерактивные игры. Кроме того, в нем подчеркивается, как объединение предметов помогает учащимся мыслить творчески и расширять свое мышление.

**Ключевые слова:** интеграция, программа, знания, умения, компетенции, ученик, урок, образование, наука, метод, методика.

### Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini shakllantirish va ularni hayotga tayyorlash uchun integratsiyalashgan ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan yondashuv ta’lim sifatini oshirish, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### Asosiy qism

Integratsiyalashgan ta’lim bu – turli fanlar orasidagi bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarga yaxlit bilim berish usulidir. Bu yondashuv konstruktivistik pedagogika nazariyasiga asoslanadi, ya’ni o‘quvchi bilimni o‘z faoliyati orqali o‘zlashtiradi. Integratsiyalashgan ta’limda o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, mavzular hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab tushuntiriladi.

Integratsiya (lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan) – degan ma’nolarni anglatadi. Bu tushuncha kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rustili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining



tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Integratsiyalashgan ta'limning turlari:

- 1.Fanlararo integratsiya
- 2.Mavzulararo integratsiya.

Fanlararo integratsiya turli fanlar birlashtirish yoki bir-biriga bog'lanish jarayoni hisoblanadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdag'i bor narsalar qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi. Masalan, rus tili, onatili, matematika fanlarini bog'lash orqali darslarni yanada qiziqarli qilib o'tishimiz mumkin.

Mavzulararo integratsiya bir nechta mavzular asosida integratsiya qilish masalalari tushuniladi. Masalan, Mavzu: Tabiat . Bunda onatili fani bo'yicha diktantlar, matnlar tuzdirishi mumkin. Tasviriy san'at fanidan tabiatga oid ko'rgazmalar chizishi mumkin bu albata o'quvchi kreativligiga bog'liq. Tematik integratsiya – bir mavzu doirasida bir nechta fanlardan bilimlar beriladi.

Kurrikulyar integratsiya – ta'lim mazmuni umumiylar kompetensiyalar asosida tuziladi.

Gorizontal integratsiya – bir sinf ichidagi fanlararo bog'liqlik.

Vertikal integratsiya – turli sinflarda o'rganilgan mavzularni o'zaro uyg'unlashtirish.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning afzalliklari.

1.O'quvchilarning o'rganilayotgan materialning nisbatan tugallangan yaxlit qismi chuqur va mustahkam o'zlashtirishlari ta'minlanadi.

2.O'quvchilarni faoliyatning turli-tuman ko'rinish va shakllariga jalg qilish, faoliyatni tashkil etishning guruh va individual shakllarini maqbul tarzda birga qo'shib olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

3.Pedagog va o'quvchilarning bиргаликда ijod qilishlariga keng imkoniyatlar yaratiladi, o'quv jarayonida hamkorlik, o'zaro yordam, ta'limning insonparvarlashuvi namoyon bo'ladi.

4.Peagog ta'limni tashkil etishning turli-tuman shakllaridan, ularni o'quv kuni doirasida, o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlaydigan va qo'llav-quvvatlab



turadigan shakllarga (masalan, guruhlarda dars-suhbat-ma'ruza-mustaqlil) ish integratsiya qilish imkoniga ega bo'ladi.

5.O'quvchilarni majburlab o'qitish yo'qoladi.

6.Bilimlar yaxlitligi – bolalar fanlarni ajratmasdan, hayotiy bilim sifatida qabul qiladi.

7.O'rghanish jarayoni mazmunli bo'ladi – darslar o'quvchining qiziqishiga moslashadi.

8.Ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi – muammoli vaziyatlar yechimi ustida ishlanadi.

9.O'zaro aloqadorlik shakllanadi – fanlar bir-birini mustahkamlaydi.

10.Ko'nikmalarning hayotga mosligi ortadi – bolalar bilimdan amalda foydalanadi.

Amaliy faoliyatda integratsiyalashgan ta'lim.

Amaliy faoliyatda integratsiyalashgan ta'lim — bu o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan, bir nechta fanlar o'zaro bog'liq holda o'rghaniladigan ta'lim shaklidir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar bilimlarni izchil, mantiqiy va hayotga yaqin holatda egallaydilar. Ishlab chiqarish yoki kasbga yo'naltirish: O'quvchilar maktab bog'i yoki kichik ustaxonalarda ishlash orqali biologiya, texnologiya, mehnat va atrof-muhit fanlari bilan tanishadi.

STEAM yondashuvi: Fan (Science), Texnologiya, Muhandislik (Engineering), San'at (Arts) va Matematika fanlarining uyg'unlashgan o'qitilishi.

Afzalliklari:

Bilimlar yaxlitlashadi va real hayot bilan bog'lanadi;

O'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rGANADI;

Fanlararo bog'liqlik orqali motivatsiya oshadi;

Amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Misol 1: "Bahor" mavzusida integratsiyalashgan dars. Bahor keldi

Bahor keldi, gullar ochdi,

Yashnab ketdi bog'-u dachti.

Qaldirg'ochlar qaytdi yurtga,

Quvonch to'ldi har bir yurak.



Bu bandda bahorning kelishi bilan tabiat uyg‘onib, go‘zallashgani tasvirlanadi. Gullarning ochilishi, bog‘ va dalalarning yashnashi — bahorning asosiy belgilaridir. Qaldirg‘ochlarning qaytishi esa mavsum o‘zgarishini bildiradi. Odamlarning qalbi quvonchga to‘lishi esa bu go‘zallikning inson ruhiyatiga ijobiy ta’sirini ifodalaydi. Ona tili fanidan bu she’rimizni tahlil qilib, o‘quvchilarni lug‘at boyliklarini oshirish,nutq qobiliyatini shakllanturishga xizmat qiladi.

Misol 2: “Do‘kon” ssenariyli dars.

Do‘konda.

Bugun onam bilan bozorga bordik. Biz avval oziq-ovqat do‘koniga kirdik. Do‘konda non, shakar, un, yog‘ va turli mahsulotlar bor edi. Onam ro‘yxat bo‘yicha kerakli narsalarni oldilar. Men esa savatchani ushlab yurdim. So‘ngra biz kiyim-kechak do‘koniga o‘tdik. U yerda yozgi futbolkalar, shapka va oyoq kiyimlari bor edi. Men o‘zimga yoqqan ko‘k rangli futbolkani tanladim. Do‘konda odob saqlash kerak. Navbatga turish, sotuvchi bilan muloyim gaplashish muhim. Onam har doim: “Do‘konda tarbiyalı bo‘l!” — deb aytadilar. Men buni yodimda saqlayman.

Bu matn asosida fanlar bilan o‘zaro integratsiya qilishimiz mumkin. Matematika bilan bog‘lasak asosan bunda do‘kondagi mahsulotlarni narxlarini bilib hisob qilish natijasida ularning matematik qobiliyatlarini ,tezkorligini va aniqligini rivojlantirishimiz mumkin. Bundan tashaqari, ularning iqtisodiy muloqotini shakllantirib, kelajakdagi faoliyatiga po‘ndament bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya fanidan esa mahsulotni etiketini yaratish yo‘li orqali kasb-hunarga yo‘naltiriladi.

### Xulosa .

Integratsiyalashgan ta‘lim zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarda tizimli fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy tahlil va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Integratsiyalashgan darslar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi oshadi, ularning o‘zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va real muammolarni hal etish qobiliyatları shakllanadi.

Ta‘limda integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish o‘quvchilarning hayotga tayyorlanishini ta‘minlaydi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva S. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Integratsiyalashgan o'qitish metodikasi", Samarqand, 2021.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2005.
4. Dewey J. "Experience and Education", New York, 1938. UNESCO report on education for sustainable development, 2020.
5. Shodmonov Yo.G. "Ta'limga zamonaviy metodlar", Toshkent, 2019.
6. .R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'limga pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voris-nashriyot" 2013.
- Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
- Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.
- SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
- Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
- Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARINI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.